KIMYO FANINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH VA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xo’jayeva Xurriyat Xajiboyevna
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani
316-maktab kimyo fani o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada kimyo fanini o’qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanishning ta’lim samaradorligiga ta’siri haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning fanni o’zlashtirishlarida multimedia texnihologiyalari yaratadigan ijobiy imkoniyatlarga alohida to’xtalgan.

Kalit so’zlar: multimedia, multimedia mahsuloti, multimedia texnologiyasi, kimyo darslari, ta’lim jarayonlari, ta’lim samaradorligi,

Hozirgi globallashuv jarayonida zamonaviy ta’limni tashkil etishda tezkorlik va sifat-samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish ta’lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biridir. Zero, ta’lim butun insoniyatning kelajagini yuksalishida eng asosiy omillardan biri bo‘lib, jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi, rivojlantiruvchi, ilgari boshlovchi kuchdir. Ta’lim jarayonlarining samaradorligini yanada oshirishda multimedia texnologiyalarining ahamiyati katta. Aynan multimedia resurslari ta’lim oluvchilarning chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishi hamda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ta’lim tizimini takomillashtirishda elektron ta’lim resurslarining, xususan, multimediya texnologiyalarining ahamiyatini ochib berish. Shuningdek, ta’lim beruvchilarda o‘quv materialini samarali va yanada qiziqarli tarzda taqdim etish muammosini hal etishda multimediya texnologiyalaridan foydalanish yo‘llarini ochib berishdan iborat. Dunyo miqyosida nazar soladigan bo‘lsak kompyuter grafikasi va dizayn juda ham keng darajada rivojlangan. Ularni amalda anchadan buyon qo‘llab kelishmoqda. Lekin bu yaratilayotgan barcha dasturlar, roliklar, dizaynlarning asosiy qismi kinofilmlar, multfilmlar, web-saytlar uchun yaratilmoqda. Maxsus saytlarda fanlarga mavzulashtirilgan multimediali darsliklarning kamligi, borlarini ham aniq bir fanni mavzularini to‘la yoritib bera olmasligi ta’lim sohasiga yanada ko‘proq e’tibor berish lozimligini e’tirof etadi. Bu borada multimediya texnologiyalarining ahamiyati katta. Multimedia-gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: - axborotning xilma-xil turlari: an’anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi; - muayyan vaqtdagi ish, o‘z tabiatiga ko‘ra statik bo‘lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma’lum oralig‘ida ko‘rib chiqiladi.

Multimedia – bu zamonaviy kompyuterli axborot texnologiyalari bo‘lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvir va animatsiyani (multiplikatsiyani) yaxlit kompyuter tizimiga birlashtirish imkonini yaratadi

Multimedia mahsuloti – tarkibida musiqa taraladigan, videokliplar, animatsiya, rasmlar va slaydlar galereyasi, turli ma’lumotlar bazalari va boshqalar kirishi mumkin bo‘lgan interfaol, kompyuterda ishlangan mahsulotdir.

Multimedia texnologiyasi axborotni bir vaqtning o‘zida insonga tushunarli, ko‘p shakllar (jumladan, nutq, rasm, chizma, tasvir, musiqa, raqam va harflar) kombinatsiyasida havola qila oladi. Bu texnologiya axborotni qidirish, nusxa olish va boshqa biror kompyuterga ko‘rsatilgan shaklda ko‘chirib o‘tkaza oladi hamda ularning xohlagan kombinatsiyasini yarata oladi.

Kimyo darslarining multimedia imkoniyatlaridan foydalanib o‘tilishi o‘quvchilarga bir qancha qulayliklar tug‘diradi. Chunki, shu fanga mavzulashtirilgan ovozli dasturlar, rasmli

ishlanmalar, harakatli yozuvlar (prezentatsiyalar), multiplikatsiya ko‘rinishida yaratilgan filmlar, animatsiyalar bir tomondan o‘qituvchi uchun yangilik bo‘lsa, ikkinchi tomondan ta’lim oluvchilar uchun qiziqarli va diqqatini o‘ziga jalb qiladi va mavzuni yaxshi o‘zlashtirilishiga turtki bo‘ladi, kimyo faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar samarali bo‘lishi bilan birga qisqa vaqt ichida mavzu bo‘yicha ko‘p ma’lumotlar berishga erishiladi. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo‘lib, olingan bilimlar esa ta’lim oluvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o‘quvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qo‘shimcha sifatida o‘quv materiallari audio, video va grafika ko‘rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

Multimedia vositalari asosida tashkil etilgan kimyo ta’limi jarayonlarida quyidagi ijobiy imkoniyatlar yaratiladi:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyati borligi;
- ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- ta’lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga erishiladi.

Multimedia vositalari asosida o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko‘rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Bugungi kunda sifatli multimedia ilovalari ishlab chiqishga yo‘naltirilgan turli-tuman, bir biridan farqli texnologik usullar mavjud. Hozirgi vaqtda multimedia ilovalarining quyidagi turlari mavjud:

- prezentatsiyalar;
- animatsion roliklar;
- o‘yinlar;
- videoilovalar;
- multimediali galereyalar;
- audioilovalar;
- web uchun ilovalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimova S.B. Multimediali pedagogik dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi». – T.: O‘zDJTI, 2016.
2. Djurayev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – T.: «Sano-standart», 2010. – 87-b.
3. N.Muslimov, D.Sayfurov, M.Usmonboeva, A.To‘raev. WEB texnologiya asosida elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. Toshkent – 2015. 17-19 bet.
4. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC
5. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAJ:IjCSPb-OGe4C
6. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
7. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAJ:9yKSN-GCB0IC
8. Narzullaevna A. D. METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE USE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN TEACHING GEOGRAPHY.
9. РАСУЛОВ А. Б., АБДУЛЛАЕВА Д. Н. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

САЙТОВ ИНТЕРНЕТАВ ПРОЦЕССЕ повышения квалификацииРАБОТНИКОВ НародНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Профессионально-личностное развитие будущих специалистов в среде научно-образовательного кластера. – 2020. – С. 466-470.